



NAMANGAN VILOYATI NAMANGAN TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 5-noyabr

386-6-82-Q/24

Namangan tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimligi faoliyati ochiqligini ta'minlash va ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi viloyat hokimining 2023 yil 25 apreldagi 153-6-0-Q/23-sonli qarorini tumanda ijrosini ta'minlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son va "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022 yil 14 iyundagi PF-154-son Farmonlarini shu mazmundagi viloyat hokimining 2023 yil 25 apreldagi 153-6-0-Q/23-sonli qarorini tumanda ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 21-1-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son va 2022 yil 14 iyundagi PF-154-son Farmonlari ijrosi yuzasidan, viloyat hokimining 2023 yil 25 apreldagi 153-6-0-Q/23-sonli qarorini tumanda asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

viloyat hokimligi faoliyati ochiqligini ta'minlash va ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida, ochiq ma'lumotlar sifatida viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti va boshqa resurslariga joylashtirilishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar bo'yicha "Yo'l xarita" ilovaga muvofiq tasdiqlanganligini tumanda ijrosini ta'minlash uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi tegishli tashkilot va idoralar rahbarlari "Yo'l xarita"dagi ma'lumotlarni yig'in uchun tuman hokimligining Axborot xizmatiga belgilangan muddatlarda taqdim etib borsinlar.

4. Tuman hokimining axborot xizmati (Q.Voxobov):

taqdim etilgan ma'lumotlarni o'z muddatida tuman hokimligining rasmiy veb-sayti va boshqa resurslariga joylashtirilishi va yangilab borilishini ta'minlasin;

ma'lumotlar o'z muddatida taqdim etilmagan hollarda, mas'ul ijrochilarga nisbatan tegishli chora qo'llash yuzasidan tuman hokimiga taklif kiritib borsin.

5. Tuman hokimining axborot xizmati (Q.Voxobov) ochiq ma'lumotlar sifatida ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti va boshqa resurslariga joylashtirib borilishiga ko'maklashsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



S.Mo'minov